

2024-yil. 7-son



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

**Til va adabiyot.uz**

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

# 9-MAY XOTIRA VA QADRASH KUNI





## M U N D A R I J A

### Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

### Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev  
Nizomiddin Mahmudov  
Yorqinjon Odilov  
Jabbor Eshonqulov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
To'lqin Saydaliyev  
Baro Buranova  
Zulxumor Mirzayeva  
Qozoqboy Yo'ldoshev  
Bahodir Jovliyev  
Salima Jumayeva  
Qayum Baymirov  
Manzar Abdulxayrov  
Alijon Safarov  
Madina Nuriddinova  
Latifa Xudayqulova  
Baro Kadirova  
Nargiza Mirzayeva  
Guli Shukurova  
To'maris Butunbayeva  
Ramziddin Abdusatorov  
Okila Turakulova  
Yulduz Raxmatov  
Ramziddin Abdusatorov  
Feruza Manukyan

### Axborot hamkorimiz:



### Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA  
Oydin SHUXRATOVA

### Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

### Dolzarb mavzu

Olim Usmonov. G'ulom Zafariy dramalarida jadidchilik g'oyalarining yoritilishi.....	3
Nargiza Kadirova. Uyg'onish va undan so'nggi davr ijodkorlarining "evrilish" motividan foydalanish mahorati.....	5
Muso Tojiboev. Badiiy tafakkur poetikasida nostaljiya va badiiy tilning komporativ qirralari.....	9
Adiba Davlatova. Shoir poetik tafakkurining psixobiografik tadqiqi....	12
Mahfuza Tuychiyeva. Lirik asarni o'rghanish tajribasidan.....	15
Iqboloy Adizova. Uvaysiy ijodiy takomilida Lutfiying ta'siri.....	17
<b>Зулхумор Эгамназарова.</b> Исторические закономерности развития русской сатиры второй половины XIX века.....	20
<b>Юлдуз Рахманова.</b> Творческая работа студентов технических вузов на занятиях русского языка.....	22
Xasanxon Omonov, Shaxlo Bekmirzayeva. O'zbekistonda musiqa pedagogikasining rivojlanish bosqichlari.....	25

### Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Xadicha Sattorova. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida qo'llaniladigan metodlar.....	27
Oqiljon Mavlonov. "Qaro ko'zum" sharhida yangiliklar bor.....	29
Muhabbatxon Bakiyeva. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'lim-tarbiyani tashkil etishda sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limotlari.....	34
<b>Mohro'y Muxtoriy.</b> Boshlang'ich sinf o'qish va musiqa darslarini integratsiyalash orqali o'quvchilarning	

nutqini o'stirishning pedagogik usullari.....	36
<b>Maftuna Qahhorova.</b> Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.....	38
<b>Dilyora Isaboyeva.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarda xalqaro baholash dasturining mazmuni va mohiyati.....	40
<b>Dilfuza Abdullaeva.</b> Using ict together with innovative methods in teaching the russian language in non-linguistic higher education institutions.....	42
<b>Maftuna Raxmatova.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'rgazma vositali orgali rivojlaniruvchi muhitni tashkil etish.....	45
<b>Зебо Амина.</b> Роль инновационных технологий и интернет ресурсов в активизации познавательной деятельности студентов в процессе обучения русскому языку.....	47
<b>Нилуфар Усмонова, Махбуба Хамирова.</b> Современные тенденции преподавания русского языка как иностранного на нефилологических направлениях вузов.....	49
<b>Munojatxon Mamadjanova.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning samarali usullari.....	51
<b>Gulruk Rajabova.</b> Kompyuter texnologiyalari talabalarning axborot kompetensiyasini rivojlanirish vositali sifatida.....	53
<b>Anvar Yoqubov.</b> Chet tilini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish.....	55
<b>Dilnoza Ro'ziyeva.</b> Axboriy muhitda kontentni o'rghanish va yolg'on ma'lumotni aniqlashning sodda markerlaridan foydalanish usullari.....	57
<b>Ирина Чернобровкина.</b> Методика	

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan **Filologiya** hamda **Pedagogika** fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (**PhD, DSc**) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.

<https://oak.uz/pages/4802>

преподавания терминологической лексики русского языка студентам неязыковых специальностей.....	60
<b>Элина Абдулаева.</b> Инновационные технологии в преподавании русского языка как иностранного.....	63
<b>Yorkin Alijonov.</b> The influence of technology on language evolution: a study of internet slang in english.....	65
<b>Дильбар Курбанова.</b> Новые методы приемов преподавания русского языка в иноязычных группах.....	66
<b>Nargiza Tulyaganova.</b> Teaching english forms with the help of interactive games.....	68

### Tilshunoslik

<b>Madina Batirxanova.</b> Madaniy kodlar orqali somatizmlarning pragmatik tadqiqi.....	70
<b>Go'zal Tilovova.</b> O'zbek tilshunoslik atamalarining tadqiqi.....	72
<b>Behzod Xudoyqulov.</b> O'zbek tilidagi son komponentli iboralar va ularning lingvomadaniy xususiyatlari.....	74
<b>Aqida Amirova.</b> Nemis va o'zbek tillari soliq terminologiyasida sinonimiya hodisasining tafovutli va o'xshash xususiyatlari.....	77
<b>Muattarxon Ismoilova.</b> Turkiy tilshunoslikda qarashlilik-tegishlilikka munosabat.....	79
<b>Зохид Бектемиров.</b> Лингвопрагматические особенности присоединительных элементов в современном немецком языке.....	81
<b>Эльвина Аджеминова.</b> Образная основа фразеологизмов и фразеологических номинаций.....	86
<b>Nargiza Nomozova.</b> Exploring the intersection of language and society: a sociolinguistic inquiry.....	88
<b>Gulabza Daminova.</b> The importance of language as a "Mirror of culture" .....	89
<b>Mehrinoza Aliyeva.</b> Romaniy mifologik tafakkur va yozuvchi uslubi.....	91
<b>Ayimhan Eshniyazova.</b> Hikoyada bolalik olamining badiiy talqini.....	96
<b>Zulfizar Azizova.</b> Yosh avlod tarbiyasida mehnatning ahamiyati.....	98
<b>Qayrat Mambetaliyev.</b> O'zbek va qozoq she'riyatida adabiy an'analarining aks etish takomili.....	100

### Tadqiqot

<b>Zebo Berdiyeva, Nazira Berdiyeva.</b> Lirik tasvir va ifodada metonimiya.....	102
<b>Gulshan Khaitova, Ferangiz Botirova.</b> "Boburnoma"da zoonimlarning qo'llanilishi.....	104
<b>Said Raxmanov.</b> Ijtimoiy-siyosiy gazetalarda	

<b>iqtisodiy mavzu ko'lami masalalari.....</b>	108
<b>Davron Mansurov.</b> Partiya nashrlarida yoritilgan maqolalar mavzularining qiyosiy tahlili.....	113
<b>Mavjudha Lafasova.</b> O'xshatishlarning antroposentrik paradigmada o'rganilishi.....	115
<b>Marxobo Erkinova.</b> Assotsiativ tajriba materiallarining genderologik tahlili.....	117
<b>Niluzar Axmedova, Mohigul Bozorova.</b> O'zbek tilidagi shaxs ruhiy holatini ifodalovchi birliklarning semantikasi.....	122
<b>Zulfiyaxon Komilova.</b> Er-xotinlik munosabatlarida psixologik qovushuvning o'rni.....	123
<b>Хуршидбек Маматисаков, Эльдар Гиздуллин.</b> Символы и религиозно-духовная интерпретация повести-притчи Эрнеста Хемингуэя «Старик и море» .....	125
<b>Intizora Axmatova.</b> Qorako'l tumanida "ota" komponentli nekronimlarining semantik tahlili.....	127
<b>Elnoza Qudratov, Sahob Karimov.</b> Musiqa merosimiz namunalarini ta'l'm - tarbiya jarayoniga joriy etish metodlari.....	130
<b>Durdona Ubaydullayeva.</b> Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemalarining izomorfik va allomorfik jihatlari hamda ularni taqozo etuvchi omillar.....	132
<b>Mahliyo Sherqulova.</b> Reklama slogan'i tushunchasi va uning funksiyalari.....	133
<b>Abror Rayxonov.</b> Futbol o'yinida qoidalarning yaratilish va rivojlanish tarixi.....	136
<b>Dildora Tashmuxamedova.</b> Xitoy tili taqlid so'zlarida initsial ishtirokining statistik tahlili.....	139
<b>Zuxrakan Kasimova.</b> Beshik to'yi marosimi folklori janlar tarkibiga doir ayrim mulohazalar.....	144
<b>Шоира Хашимова.</b> Азартные игры в произведениях классической корейской литературы.....	147
<b>Баходир Дехконов.</b> Архитектурные заимствования в современном русском языке.....	149
<b>Manzura Abdusalilova.</b> Issues on translating english idioms into uzbek language.....	151
<b>Nilufar Turdiyeva, Davlatbek Egamkulov.</b> Inversion in english literary tale.....	153
<b>Mahfuza Ruzieva.</b> The notion of linguistic personality in translation studies.....	155
<b>Alisher Hamidov.</b> Practical approach to the issue of simultaneous.....	157
<b>Dilorom Mirsagatova.</b> Classifications of railway terms in english.....	159
<b>Раушан Торежанова,</b> <b>Шахризода Торежанова.</b> Загадки и их значение в эстетическом воспитании молодежи в каракалпакской народной педагогике.....	161

Yuqoridagi badiiy tafakkur doirasida nostalgiya, badiiy tilning komporativ qirralari doirasida badiiy vaqt va badiiy tilning o'zaro poetik, stilistik mutanosibligi imkoniyatlari tahlili badiiy asarni o'rganishning naqadar ulkan muammolari mavjud ekanligini ko'rsatib beradi. Ular yechimini topish jarayonida zamonaviy adabiyotshunoslik badiiy tafakkurning yangi yo'nalişlarini yaratishga intiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksenenko I. Predlogi angliyskogo yazыка - M., 1956, 210 s.
2. Apolova M.A. Specific English - M., Mej.otn., 1977, 190 s.
3. Abduaizov A.A. O sostavnix chastyax kognitivnoy lingvistiki// Xorijiy filologiya. – Samarkand: SamGIIYA, 2007. – №3(24). – S. 5-6.
4. Buranov Dj. Sravnitelnaya tipologiya angliyskogo i tyurkskix yazыkov. – M.: Vysshaya shkola, 1983. – 267 s.
5. Demyankov V.Z. Kognitivnaya lingvistika kak raznovidnost interpretuuyushego podxoda // Voprosy yazыkoznanija. 1994.
6. Nurmanov A. Maxmudov N. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - T.: 1992.
7. Nurmanov A. Til haqida sintaktik nazariyalar. –T.: 1988.
8. Maslova V.A. Kognitivnaya lingvistika: Ucheb. Posobie. – Mn.: Tetra Sistems, 2004. – 293 s.
9. Safarov SH.S. Kognitiv tilshunoslik. – J.: «Sangzor nashriyoti», 2006. – 91 b.
10. Sternin I.A., Popova Z.D. Kognitivnaya lingvistika. – M.: «Vostok-zapad», 2007. – 314 s.
11. Galperin I.R. Stylistics - M., 1977.
12. Bloomfield L. An Introduction to the study of Language. N.Y. 1914 p Buranov J.B, Yusupov U.K, Mskulov M.T, SodikoV A.S. The grammatical structure of English, Uzbek and Russian. Tashkent, Ukituvchi PH, 1986.

**Adiba DAVLATOVA,**  
CHDPU professori,  
filologiya fanlari doktori (DSc)

## SHOIR POETIK TAFAKKURINING PSIXOBIOGRAFIK TADQIQI

**Annotatsiya:** ushu maqolada badiiy asar tahlilida muhim kategoriya hisoblangan poetik tafakkur, psixologik va biografik tahlil metodlari haqida so'z yuritiladi. O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov lirikasidagi psixobiografik nuqtalar o'rganilgan. Shoiring badiiy ijod olamiga kirib kelgan ilk yillardan tortib, umrining so'nggi yillariga qadar yozilgan she'rlariga to'xtalingan.

**Аннотация:** в данной статье говорится о методах поэтического мышления, психолого-биографическом анализе, который является важной категорией при анализе художественного произведения. Исследуются психобиографические моменты в лирике народного поэта Узбекистана Абдуллы Орипова. Обсуждаются стихи, написанные от первых лет его творческого творчества до последних лет жизни.

**Annotation:** this article talks about the methods of poetic thinking, psychological and biographical analysis, which is an important category in the analysis of a work of art. Psychobiographical moments in the lyrics of the people's poet of Uzbekistan Abdulla Oripov are explored. Poems written from the first years of his creative work to the last years of his life are discussed.

Muayyan asarning yaratilishi, tuzatish jarayonlaridan o'tib, o'quvchi qo'liga yetib borishi bizga noma'lum psixologik, fiziologik, mantiqiy fikrlash kabi bosqichlardan o'tadi. Asarga eng avvalo g'oya, keyin shakl va mazmun tanlanadi. Bu jarayon ham aqliy emas, balki hissiy-ekspressiv holat bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun shoir yoki yozuvchining "sermahsul ijodi" zamirida uning ruhiy holatida sodir bo'layotgan qarama-qarshiliklarning o'rni beqiyos. Qachonki, ijodkor eng avvalo o'zi, mansub jamiyat qonun-qoidalaridan qoniqmasligi, yanada mukammalikni istaversa, tinimsiz ijodiy jarayon

ham davom etaveradi. Ijodiy jarayonning psixologik tahlili fanda keng o'rganilgan. Biz mazkur faslda Abdulla Oripovning she'r yaratish texnikasi emas, balki yaratilgan asarlarning shoir fenomeniga, ruhiy xaritasiga doir chizgilarni aniqlashga harakat qilamiz. Har bir asar mustaqil mavzu, g'oya va mazmunni o'zida jamlaydi. Lekin u bir ijodkorga tegishli bo'lsa, ular mundarijasida shoir yoki yozuvchining ruhiy tarjimai holi – psixobiografiysi ham mavjud bo'ladi. Psixobiografiya yunoncha so'zdan olingan bo'lib, ma'lum tarixiy shaxslarning tarjimai holi va shaxsiyatini psixologik tahlil qilish janridir. Bunda muayyan shaxs

faoliyatidagi nuqtalarni aniqlashda uning ruhiy omillariga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur yondashuv XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo bo'lgan bo'lib, Leonardo da Vinci, Gyote, Russo, Shopengauyer, Dostoyevskiining hayoti va ijodi asosida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Psixobiografiya tahlili psikoanalitiklar tomonidan amalga oshirilib, shaxsning g'oya va yo'nalishlari asosida ish olib boradi. Xorijlik psikoanalitik olim Erik Erikson tomonidan buyuk shaxslar, ijodkorlarning psixotarixiy hayoti orqali ular shaxsiyatiga baho berilgan. Bu usul psixobiografik metod deb nomlanib, nazarimizda badiiy asarlar yoxud ijodkorning butun ijodini o'rganishda ham qo'l keladi. Bunda olimlar akmeologik tizim asosida ma'lumotlarni, asosan, tarjimai holdan oladilar. Biz ham psixologiya ilmiga da'vo qilmagan holda, Abdulla Oripovning psixobiografiyasini kontent tahlili orqali ko'rsatishga harakat qilamiz. Buning uchun shoirning turli xil ijodiy davrlardagi asarlarini o'rganamiz. Ba'zida katta-katta asarlar, masalan, dostonlar ham ijodkor ruhiyatining ko'zgusi sifatida o'quvchiga axborot uzatishi mumkin. Bu birinchidan, yozuvchining ijod dinamikasini ko'rsatsa, ikkinchidan, ijodiy ruhiyati tarixining tarxini chizishda ham yordam beradi. Kontent tahlil muayyan ijodkor onggidagi ma'naviy, axloqiy, e'tiqodiy, shaxsiy komponentlarni tizimli o'rganadi. Bu ijodkorning tom ma'nodagi ijod yo'lini biografik nuqtalar kesimida tadqiq etishga yo'naltirilgan. Chunki har bir asarda qaysidir ma'noda shoirning o'zligi, she'r yaratilayotganidagi "kichik hayoti" mavjudligini inkor etib bo'lmaydi.

"Qushcha" e'lon qilinganda, shoir 17 yoshda edi. Aynan shu davrda "Yulduzlar", "Tog'lar", "Kapalak va men", "Qo'shig'im kabi", "Kelingiz, do'stlarim" singari she'rlari dunyo yuzini ko'rgan. Sarlavhalardan ham ko'rinib turibdiki, shoir ona tabiatning, uning bag'rida jo bo'lgan betakror go'zallikning shaydosidir. Tabiat, sevgi, orzu motivlari yetakchilik qiladi.

"Studentlik yillarim hamma studentlarniki singari yillar bo'ldi. G'o'rlik, do'st orttirish, birinchi muhabbat kabi savdolar yoshlik bilan hamqadam bo'lib yuradi. Men yuqoridaq taassurotlarimni ko'pincha she'r qilib yozardim. Yuragimni bo'shatib olgan bo'lsam kerakda! Universitetda jahon adabiyotini, o'z adabiyotimizni astoydil o'rganganimiz". Ya'ni shoir hayotidagi o'zgarishlar, onasining vafoti, oila qurishi, farzandlarning tug'ilishi, pinhona hujumlar girdobida yolg'iz qolishi kabilardan tushkunlikka tushish va o'z navbatida qayta "yaralish" instinkliga ega bo'ldi. Psixobiografiyasida bu inqiroz va marralar hayotining belgilovchi, ruhiyatining tetiklantiruvchi omiliga aylandi. Bu esa o'z navbatida shoirning shaxs sifatidagi qarashlarini qat'iylashishiga olib keldi hamda yangi badiiy obraz, tasvirlarga boy manba berdi. Bu davrga kelib, shoirda o'ziga, ijodiy potensialiga ishonish hissi o'sdi. Shuning uchun ham "Sozim" she'rida "men shoirman, istasangiz shu..." tarzidagi

ijodkorlik tuyg'usi ochiq e'lon qilindi. Ya'ni bu davrga kelib, shoir o'zi ishongan, maqbul ko'rgan qarashlarni tanqidiy tahlil qildi, ularni yangidan baholadi. Shuning barobarida yangilarini hayoti, ijodiga olib kirdi. Yillar o'tishi bilan ijodkordagi ishonch, shaxsiyatidagi impulslar jamiyat va noravo odamlar ta'sirida yo'qola boradi. Endi uning misralari sho'xchan, o'ynoqi emas, vazminlik, falsafiylikka aylana boradi.

Mashrab-u Cho'lponlarning fojiasiga loqayd boqqan bu "olomon" qachon xalqqa aylanadi degan savollar uning kichik jussasini bukib, ruhiyatini sindirib qo'yadi. Shuning uchun u dunyoni busbutun ko'rishning imkoniy yo'q degan xulosaga keladi. "Ko'zgu parchalari"da olamni xuddi mozaikalar kabi terib tasvirlaydi. Natijada, qalb og'rig'i, yurak xastaligi – infarktni boshdan kechiradi. Atigi qirq yosh ustida turib shunday kasallikka ro'baru kelganidan nadomat chekadi. Dunyodan to'ymagan yosh yurakning nolalari vidoga aylanadi. Lekin uning vatanparvarligi shu darajadaki, u o'zga makonlarda omonatini topshirishni istmaydi. 1980-1985 yillarda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida turli lavozimlarda, shuningdek, 1988-2008 yillar "O'zbekiston mualliflar huquqini himoya qilish" rahbari sifatida ish olib bordi. 1996-yildan 2007-yilga qadar O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi vazifasida faoliyat olib bordi. U hattoki oddiy ko'z qarashlardagi ma'noni ham tez ilg'aydi. Yonidagi suhbatdoshining bir jumlesi yoki o'zini tutishiga qarab unga to'laqonli baho berishga qodir sinchi. Bu xislatlar bilan yashash oson emas. Atrofidagi odamning ichini bilib turib, unga toqat qilish, muloqot qilish naqadar qiyin jarayon. Lekin shunday bo'lsa-da, shoir odamovi emas, u muloqotmand va va'zga moyil shaxs. Bu psixobiografik chizgilar she'rlari tahlil orqali ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shoir ongida butun hayoti davomidagi katta orzusi istiqlolga bo'lgan intilish kuchli aks etdi. Goh tanqidiy, goh ramziy mazmunda bu g'oya ifodalandi. Shoirning shaxsiyati vatanparvarlik tuyg'usi shu qadar kuchlik, bu holat she'rlariga g'oya berdi. Ozodlik kishining ruhini o'stiradi, unga quvonch bag'ishlaydi, shu bilan birga shaxs sifatida yangilanishga turki beradi. Bu niyat shoir adabiy biografiyasida doimo bo'lgan, lekin 1980-1988-yillarga kelib yanada kuchaygan. Shoir ona xalqini yillar davomida aldanganidan armonga to'ladi. Ko'pgina obrazlarida kommunizm utopiyasining kulgili jihadlarini ham ochiq yozadi. Garchi "Chol va kommunizm" qissasida buni 1965-yoldayoq yozib qo'yan edi. Shuncha yillik sim-sim og'riqlar shoir ijodiy va shaxsiy kamolotga yetgan pallasida kuchli og'riqqa aylanadi.

*Meni aldab ketdi lo'ttiboz olchoq,  
Ishongan kishim ham ko'rsatdi yaroq,  
Ularni xudoga topshirdim biroq,  
Axir u men uchun armon emasmi?*

Shu davrda shoir mustaqillik shukronasi, uni asrab-avaylash, birdamlik, hamjihatlik, xalqqa aylanish g'oyasini badiiy obrazlarda yuksak tasvirlagan. Endi u mustaqillik tushunchasining yangi mafkuraviy asoslarini izlaydi. Diniy erkinlikni ham ulug'lagan holda "Haj daftari" turkumini yaratadi. Buning biografik asosi ham mayjud bo'lib, shoir haj amallarini ado etish baxtiga musharraf bo'ladi. Illohiy ibodatlar asnosida ruhida tug'ilgan hissiyotlar, hadislarni she'riy tazmin qilish istagi qator ma'rifiy asarlarning tug'ilishiga zamin hozirlaydi. Shoir ijod bilan bir qatorda mas'ul lavozimlarda ham faoliyat olib bordi. Xizmat vazifalari bilan turli xorijiy davlatlarda safarlarda bo'ldi. "Jeneva daftari" turkumi ana shu davrlar mahsulidir. Lekin shoir o'z-o'zi bilan yolg'iz qolganda, ruhiyatining asl chizgilar bo'y ko'rsataveradi. Yurt mustaqil, hamma shod. Lekin shoirning hasratlari hali tugagan emas. U butun dunyoda komillik istaydi, odamlarning raso bo'lishidan umidini uzmaydi. Buning teskarisini ko'rganda ruhan eziladi:

*Hech kim hasratimga quloq solmadi,  
Ruhimni biror zot anglay olmadi.  
Bunda qiladigan ishim qolmadi,  
Allohim, oq yo'l ber, ketar chog'imda.*

Shoir ijodkorlikning qiyin qismatini, izma-iz ta'qib qilayotgan hasadni yetuk iste'dod va iste'dod sizlik o'rtasidagi tabiiy tortishuvni hayot tarzi sifatida qabul qiladi. Bu kabi ruhiy zo'riqishlarga, bosimlarga she'r vositasida davo izlaydi. Natijada, uning mulohazalar chuqurlashib, umuminsoniylik kasb eta boradi. Uning asarlarida millat va xalqqa mas'ullik, Vatan ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilish bilan bog'liq asarlar mundarijasi kenggayadi. Hamma ishni o'z egasi, bilimdoni qo'liga topshirish kerak, odam bolasi pul, mansab, soxta obro' yo'lida o'zini u yoq bu yoqqo tashlayverishi to'g'ri emas, degan donishmandona xulosalariga keng o'rin beriladi.

*Orzu qilgan ekan boyvachcha yigit,  
Uy qurdi, aqchani sarf etdi talay.*

*Uyni qo'riqlardi lekin cho'loq it,  
Bo'ynigacha qo'tir, bir ko'zi g'ilay.  
Shundoq imoratni qurdingmi, Odam,  
Topib qo'y-da endi loyiq itni ham.*

Bu she'r tom ma'noda ramziylikka ega. Bu kabi tanqidiy tahlilga asoslangan she'rlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Endi u dunyoviy muammolardan ham, badbin kimsalarning ozorlaridan ham charchagan. Ruhiyati va ijodiy g'oyasida iymon, o'limga chora yo'qligi, jannatdan umidvorlik g'oyalari birinchi o'ringa chiqadi. O'zi shoir tabiatida ham, she'rlarida ham Yaratganga topinish, murojaat ko'p uchraydi. Masalan, adabiy merosidagi leksemalar statistikasi tahlil qilinganda, Yaratganga yuzlanish holatlari 303 marta uchraydi. Ya'ni Xudo so'zi 159 marta, Alloh so'zi esa 144 marta qalamga olingan. Bu to'g'ridan to'g'ri qo'llanilish holati, bundan tashqari Shoir adabiy merosini kuzatganimizda, Ona obrazi va so'zi 1092 holatda, go'zal va go'zallik tushunchasi 137 marotaba, hasad 74, hasadgo'y obrazi 23 marta, hayot tushunchasi 389, iblis so'zi 52, shayton esa 87 holatda, umumiy esa 139 marta qalamga olinadi. Mana shu kategoriyalarni tasniflaganimizda shoir qadrlagan eng oliy tuyg'u Ona ekani, keyingi o'rinda hayotni sevgani, qadrlagani, hayotsevarlik xususiyatlarini aniqlashga harakat qildik. Tasnifning keyingisida esa iblis so'zi bo'lib, bu orqali real tushuncha va uning xususiyatlarini tashuvchi odamlardan zadalik motivi kuchli ifodalangan. Keyingi o'rinda esa, go'zal va go'zallik kategoriyasi turib, bu asosan shoir ijodining dastlabki yigirma yiliga to'g'ri keladi. Bora-bora shoir go'zallik deganda boshqa fazilatlarni nazarda tuta boshlaydi. Hasad va hasadgo'y obraziga ham keng to'xtalgan bo'lib, turli yillarda, turli vaziyat va she'rlarida jami 74 marta qalamga oladi. Bu uning ong osti uzatmalari bo'lib, ko'z o'ngimizda shoirning psixobiografik xaritasi paydo bo'ladi. Ya'ni mazkur tushunchalarning vujudga kelish chastotasi muallif ongi va ruhiyati dinamikasi makoni bilan bog'liqdir.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Belyanin V.P. Osnovy psixolingvisticheskoy diagnostiki. M.: Trivola, 2000.-248 s.; Erikson E.H. Life History and Historical Moment. N.Y., 1975.; Kolsova V.A., Xolondovich Ye.N. Voprosyeniye duxovnosti v lichnosti i tvorchestve F.M. Dostoyevskogo. M.: Izd-vo «Instituta psixologii RAN», 2013. – 304 s.; Xolondovich Ye.N. Sosialno-psixologicheskiye aspekty formirovaniya i razvitiya genialnoy lichnosti. Psixologiya odarennosti i tvorchestva: monografiya / Pod red. prof. L.I. Larionovoy, prof. A.I. Savenkova. M.; SPb.; Izd-vo...: Nestor-Istoriya, 2017.; Xolondovich Ye.N. Fenomen duxovnosti geniyev. Nauka. Kultura. Obshchestvo. M.: IPSI RAN. № 2. 2016.
2. Davlatova A.R. Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji. Monografiya. – T.: Tafakkur, 2021
3. Davlatova A.R. Abdulla Oripov poetik tafakkurida Navoiy adabiy merosining ta'siri//O'zMU xabarları. 2020, 174-180-betlar.